

**“TASDIQLAYMAN”**  
 O‘zbekiston davlat sanat va madaniyat  
 instituti rektori  
 N.B.Sayfullayev  
 2025-yil “30”-06


**San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi ta’lim yo‘nalishiga ikkinchi va  
 undan keyingi oliy ta’limga qabul qilish imtihoni**  
**BAHOLASH MEZONI**

Talabgorga quyidagi mavzular bo‘yicha savollar beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to‘plagan talabgor suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Mamlakatda o‘zbek san’ati, san’atshunosligi va san’at jurnalistikasi sohasini rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi bo‘yicha;	25
2.	San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (sohaning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunishi, unga qiziqishini namoyon etishi) bo‘yicha;	25
3.	San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi ta’lim yo‘nalishining kasbiy xususiyatlari (ilmiy izlanishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishslash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo‘yicha;	25
4.	San’atshunoslik: san’at jurnalistikasi ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi bo‘yicha;	25
<b>Jami</b>		<b>100</b>

**Berilgan savollariga talabgorning javobini baholash mezoni**

<b>Nº</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
1.	Qo‘yilgan savolga talabgor tomonidan to‘liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida bilimi ko‘rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tushunchalar, nazariy va tarixiylikning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. Tushunchalarni ifodalashda, javob berish	22-25

	jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda xatolar tuzatilishi mumkin.	
2.	Savolga to'liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda tushunchalar, nazariy va tarixiy jarayonlarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketmà-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin.	18-21
3.	Berilgan savollarga to'liq va batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Fikrini bayon qilishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor soha xususiyatlarini anglay olmaganda. Bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.	14-17
4.	Talabgor savol mavzusi bo'yicha sezilarli xatolarga yo'l qo'yganda, bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'limgan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savollarni to'liq anglamaganda. Xulosa va javoblarning isboti mavjud bo'limganda. Nutqi aniq va ravon bo'limganida. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollarini talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu bo'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda.	0-13

**Qabul komissiyasi mas'ul kotibi**

**S.Turatov**